

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**«Milliy istiqlol g‘oyasi va
ma’naviyat asoslari» fanidan
Davlat ta’lim standarti**

Toshkent – 2005

Tuzuvchilar:

O.Musurmonova - Pedagogika fanlari doktori, professor
S.Nishonova - Pedagogika fanlari doktori, professor
S.Yoʻldosheva - TVPQTMOI ijtimoiy fanlar va maʼnaviyat
asoslari kafedrasi mudiri, p.f.n.dotsent
M.Azimova - RTM «Maʼnaviy va maʼrifiy ishlar»
boʻlimi bosh metodisti
Z.Ismoilova - TSHXTBB uslubchisi
D.Faxrutdinova - Toshkent shahar, A.Ikromov tumanidagi
229-maktab oʻqituvchisi
A.Shamsiyeva - Toshkent shahar, Chilonzor tumanidagi
128-maktab direktori

Muharrir : - M.Hamrayeva, RTM «Davlat tili»
boʻlimi metodisti

DAVLAT TA'LIM STANDARTI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-8-9 sinflari uchun mo'ljallangan «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» o'quv fani o'quvchilarning bilim saviyalari, yoshi, psixologik va fiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ikki yo'nalishga bo'lib o'rganiladi:

1. Milliy istiqlol g'oyasi.
2. Ma'naviyat asoslari.

O'quvchilar mazkur yo'nalishlar bo'yicha quyidagi bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim.

Milliy istiqlol g'oyasi bo'limi

-milliy g'oya va mafkura tushunchalarining mazmun-mohiyatini sharhlash va anglash;

-milliy istiqlol mafkurasining milliy va umuminsoniy tamoyillari va vazifalarini bilish;

-g'oya va mafkuraning tarixiy shakllari va ko'rinishlari, g'oyaning xususiyatlari va turlarini bilish, ular haqidagi fikrini erkin bayon etish;

-g'oyaviy bo'shliq va uning oqibatlarini anglash;

-vayronkor g'oyalar va ularning zararli oqibatlarini bilish;

-diniy ekstremizm, terrorizmning yoshlar ma'naviyatiga ta'sirini anglash;

-jaholatga qarshi kurash tamoyillarini bilish;

-tarixiy taraqqiyot va mafkuraning nisbatini tahlil etish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish;

-jamiyat rivoji va bunyodkor g'oyalarni sharhlay olish;

-bugungi dunyoning mafkuraviy manzarasini anglash;

-milliy istiqlol mafkurasining bosh va asosiy g'oyalari mazmunini singdirish;

-O'zbekistondagi demokratik o'zgarishlar va mafkuraviy jarayonlarni qiyoslash;

-mamlakatni taraqqiy ettirishning o'zbek modeli va ustuvor yo'nalishlarini bilish, ularni sharhlash va hayotiy misollar bilan isbotlash ko'nikma, malakalarini shakllantirish;

-xulq-odob, ma'naviyat, huquqiy bilim siyosiy ong negizi ekanligini anglash;

- mahalla – demokratiya darsxonasi ekanligini anglash.

Ma'naviyat asoslari bo'limi

- mustaqillik mohiyati va ma'naviy qadriyatlarni bilish, sharhlash;

- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni ajrata bilish, ularning mohiyatini anglash;

- sharq va g'arb mutafakkirlarining ma'naviy qarashlarini tahlil eta olish;

- ma'naviy-axloqiy fazilatlarni qadrlash;

- madaniyatning ahamiyatini anglash va o'quvchilarning ekologik ongini yuksaltirish;

- bilimdonlik va vatanparvarlik – ma'naviy barkamollik mezonini ekanligini anglash;

- oila, oilaviy qadriyatlarni anglash;

- milliy bayramlar, urf-odat va an'analar mazmunini tushunish.

DAVLAT TA'LIM STANDARTIGA SHARH

Maqsad va vazifalari

Ushbu fanning asosiy maqsadi yuz berayotgan jahonshumul voqealar, o'zgarishlar davrida o'quvchilar ongida mafkuraviy bo'shliq paydo bo'lishining oldini olish, ular ongida milliy g'oya va mafkurani shakllantirish orqali e'tiqod va dunyoqarashlarini tarkib toptirishdan iborat.

Prezidentimiz I.A.Karimov «... yoshlarimizning iymon-e'tiqodini mustahkamlash, irodasini baquvvat qilish, ularni o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan barkamol insonlar etib tarbiyalash, ularning tafakkurida o'zligini unutmaslik, ota-bobolarning muqaddas qadriyatlarini asrab-avaylash va hurmat qilish fazilatini qaror toptirish, ularni «Men o'zbek farzandiman», deb g'urur va iftixor bilan yashashiga erishishdir» - deb ta'kidlaydi.

Davlat ta'lim standartlari ushbu fan yuzasidan o'quvchi bilishi va egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning belgilangan ma'lum me'yori, ilmiy asoslangan bilimlar hajmi bo'lib, ta'lim tizimida barcha fanlar uchun bir xil emas. Shuningdek, «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fanida milliy istiqlol mafkurasining asosiy g'oyalarga ishontirish, e'tiqodni shakllantirish va shu g'oyalarni singdirishga qo'yilgan talablar davlat ta'lim standartining mazmunini belgilaydi.

«Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fani, asosan:

- yosh avlodni milliy istiqlool g'oyalari ruhida tarbiyalash;
- ma'naviy-ruhiy kamol toptirish;
- g'oyaviy tarbiya va immunitetni shakllantirish;
- ma'naviy-mafkuraviy e'tiqodni shakllantirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning mohiyatini anglab yetish;
- vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usini, g'ururni shakllantirish;
- yosh avlodda insoniy fazilatlarni tarkib toptirish;
- ilmiy, falsafiy va dunyoviy bilim berish kabi muhim vazifalarni amalga oshiradi.

Mazkur fanning «Milliy istiqlool g'oyasi» bo'limi, g'oya, mafkura, g'oyaning turlari, milliy istiqlool g'oyasining bosh va asosiy g'oyalari, o'zbek modeli, taraqqiyotni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini o'z ichiga olgan bo'lib, yoshlarga bu tushunchalarni quruq yod olish emas, balki tarixiy va hayotiy misollar orqali yetkazish nazarda tutilgan.

«Ma'naviyat asoslari» bo'limi ma'naviy-madaniy – odob-axloq me'yorlari, insoniylik fazilatlari, jamiyatda jamoaning tarbiyaviy ta'siri, yoshlarning o'z kuchi, bilim, salohiyati va kelajagiga ishonch hislarini shakllantirishga xizmat qiladi.

7-sinfda «Milliy istiqlool g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fani o'qitilishining maqsad, vazifalarini belgilashda o'quvchilarga istiqloolning millatimiz kelajagini ta'minlashdagi ahamiyati, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy g'oya, fikr, g'oyalarning turlari, mafkura, taraqqiyot, mustaqillik, Konstitutsiya, madaniyat, san'at, insoniy fazilatlar haqidagi tushunchalarni singdirish inobatga olingan.

TA'LIM MAZMUNINING NEGIZINI BELGILOVCHI KO'RSATKICHLAR

«Milliy istiqlool g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fanining asosiy maqsadlaridan biri Prezident I.Karimov tomonidan belgilab berilgan g'oya yurtimizda ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etishga xizmat qiladigan yaxlit va izchil ta'limotni yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishdan iboratdir.

Mazkur fan milliy istiqlool g'oyasining asosiy tushuncha va tamoyillari, uning tarixiy negizlari, ilmiy, falsafiy, dunyoviy ildizlari,

o'ziga xos namoyon bo'lish qonuniyatlari va xususiyatlari to'g'risida bilim beradi.

“Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari” fanining o'qitilishini to'g'ri tashkil qilish va bu borada ta'lim-tarbiyaning an'anaviy hamda zamonaviy usullaridan to'g'ri foydalanish muhim ahamiyatga egadir. Shuningdek, o'quvchilarning bilim samaradorligini yanada oshirish uchun quyidagi asosiy talablarga amal qilish maqsadga muvofiqdir.

O'QUVCHILARNING TAYYORGARLIK DARAJASIGA QO'YILADIGAN MINIMAL TALABLAR

7-sinf

Asosiy tushunchalar:

- g'oya;
- fikr;
- bunyodkor va vayronkor g'oyalar;
- diniy fanatizm;
- aqidaparastlik;
- mafkura, milliy mafkura;
- hurfikrlilik;
- mustaqillik, ma'naviyat;
- ma'naviy taraqqiyot;
- vatanparvarlik;
- millat tushunchasi;
- milliy iftixor tuyg'usi;
- bilimdonlik – ma'naviy barkamollik;
- huquqiy madaniyat;
- inson, tabiat, ekologik madaniyat;
- san'at;
- insoniy fazilatlar, insonparvarlik;
- mehr-muruvvat;
- xulq-odob;
- do'stlik, o'rtoqlik;
- kamtarlik, manmanlik;
- do'stga vafo;
- muloqot.

Ko'nikma va malakalar:

- g'oya bilan fikrni bir-biridan farqlay olish;
- g'oyaning asosiy xususiyatlari va turlarini ajrata olish;
- mafkura mohiyatini tushuntirib bera olish;
- taraqqiyot va mafkurani anglay bilish;
- bunyodkor va vayronkor g'oyalarga nisbatan o'z munosabatini bildiradi olish;
- ma'naviyat, mustaqillik tushunchalarini bilish;
- vatanparvarlik;
- millat tushunchasining mazmun va mohiyatini anglash;
- milliy iftixor tuyg'usini his qilish;
- bilimdonlik – ma'naviy barkamollik mezoni ekanligini anglash, savodxonlik;
- huquqiy madaniyat yetuklik belgisi ekanligini bilish;
- insonning tabiatga munosabati, ekologik madaniyat – oliyjanoblik belgisi ekanligini anglash;
- san'atni go'zallik timsoli sifatida his eta olish;
- insonparvarlik – oliy fazilat belgisi ekanligini bilish;
- mehr-muruvvat – yuksak fazilat ekanligini anglash;
- xulq-odob-ma'naviyat negizi ekanligini idrok etish;
- do'stlik, o'rtoqlik, kamtarlik, manmanlikka o'z munosabatini bildiradi olish;
- muloqot turlari: muloqot, sukut saqlash madaniyatlik belgisi ekanligini anglash va sir saqlashga rioya etish.

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA’LIMI VAZIRLIGI
RESPUBLIKA TA’LIM MARKAZI**

**Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining
7-sinflari uchun «Milliy istiqlol g‘oyasi va
ma’naviyat asoslari» fanidan
o‘quv dasturi**

Toshkent - 2005

UQTIRISH XATI

«Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» fanining ta’lim tizimiga joriy etilishi mamlakatimiz ma’naviy hayotida muhim voqea bo‘ldi.

Ushbu fanning vazifasi Prezident Islom Karimov tomonidan asoslab berilgan milliy istiqlolning bosh g‘oyasi yurtimizda «Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish»ga xizmat qiladigan yaxlit va izchil ta’limotni yoshlarimiz qalbi va ongiga singdirishdan iboratdir.

«Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari» fanining asosiy maqsadi yuz berayotgan jahonshumul voqealar, o‘zgarishlar davrida o‘quvchilar ongida mafkuraviy bo‘shliq paydo bo‘lishining oldini olish, ular ongida milliy g‘oya va mafkurani shakllantirish orqali e’tiqod va dunyoqarashlarini tarkib toptirishdan iborat.

Ushbu dasturda fan yuzasidan o‘quvchi bilishi va egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning belgilangan ma’lum me’yori, ilmiy asoslangan bilimlar hajmi bo‘lib, ta’lim tizimidagi barcha fanlar uchun bir xil emas. Shuningdek, «Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari» fanida milliy istiqlol mafkurasining asosiy g‘oyalari ishontirish, e’tiqodni shakllantirish va shu g‘oyalarni singdirishga qo‘yilgan talablar davlat ta’lim standartining mazmunini belgilaydi.

«Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari» fanining vazifalari quyidagilardan iborat:

- yosh avlodni milliy istiqlol g‘oyalari ruhida tarbiyalash;
- ma’naviy-ruhiy kamol toptirish;
- g‘oyaviy tarbiya va immunitetini shakllantirish;
- ma’naviy-mafkuraviy e’tiqodni shakllantirish;
- ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy islohotlarning mohiyatini anglab yetish;
- vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg‘usini, g‘ururni shakllantirish;
- yosh avlodda insoniy fazilatlarni tarkib toptirish;
- ilmiy, falsafiy va dunyoviy bilim berish.

Mazkur fanning «Milliy istiqlol g‘oyasi» bo‘limi, g‘oya, mafkura, g‘oyaning turlari, milliy istiqlol g‘oyasining bosh va asosiy g‘oyalari, o‘zbek

modeli, taraqqiyotni isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini o‘z ichiga olib, yoshlarga bu tushunchalarni quruq yod oldirish orqali emas, balki tarixiy va hayotiy misollar bilan isbotlash orqali anglab yetish nazarda tutilgan.

Ularning qalbi va ongida milliy istiqlol g‘oyalari va milliy mafkuraviy e‘tiqodni shakllantirish uchun «g‘oya» va «mafкура» tushunchalari, ularning ma‘no-mohiyati va shakllari, ko‘rinishlari, insoniyat hayotida g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi ma‘rifat bilan kurashish tamoyiliga amal qilib yashashning ahamiyati, dunyodagi va mintaqamizdagi mafkuraviy jarayonlarning bugungi manzarasi, taraqqiyotning o‘zbek modeli, g‘oyaviy bo‘shliq va uni to‘ldirish zarurati haqidagi tushuncha va tamoyillarni zamonaviy ta‘lim-tarbiya vositalari orqali ta‘sirchan usullarda va soddalashtirilgan holda yosh avlod ongiga yetkazish talab etiladi.

Shuningdek, milliy istiqlol mafkurasining ma‘no-mohiyati va asosiy tamoyillari, O‘zbekistonda kechayotgan demokratik jarayonlar va mafкура haqidagi tushuncha va g‘oyalarni o‘quvchilarga har tomonlama chuqur singdirish ham bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Ma‘naviy barkamol inson bo‘lib yetishishning asosiy mezonlaridan sanalgan odob-axloq tarbiyasi doimiy va uzluksiz bo‘lmog‘i lozim. Buning uchun o‘quvchilarda insonparvarlik va mehr-oqibat, saxovat va muruvvat, do‘stlik va sadoqat, sabr-qanoat kabi fazilatlarni shakllantirish asosiy o‘rinda turmog‘i kerak.

«Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari» fanini o‘rganishda quyidagi tamoyillarga rioya etiladi:

- umuminsoniy va demokratik qadriyatlarning bir butunligi;
- zararli mafkuralarga baho berishda g‘oyaga qarshi g‘oya, jaholatga qarshi marifat bilan kurashish tamoyiliga asoslanish;
- milliy istiqlol g‘oyasi asosidagi e‘tiqod va dunyoqarashni shakllantirish uzluksiz jarayon ekani;
- milliy va umuminsoniy qadriyatlarni o‘rganishga bo‘lgan ehtiyojni hisobga olish;

-5-6 sinflarda o‘rganiladigan «Vatan tuyg‘usi» va 7-8-9-sinflarda o‘rganiladigan «Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari» o‘quv kurslari o‘rtasidagi o‘zaro uzluksizlik va izchillikni ta‘minlash.

Shuningdek, o‘quvchilarning olgan nazariy bilim va tushunchalarini sinab ko‘rish, ularning o‘qish jarayonida, maktab, oila va jamoatchilik o‘rtasida ana shu bilimlarni qo‘llay olish ko‘nikmalarini hosil qilishga e‘tiborni qaratish maqsadida ba‘zi darslarni amaliy mashg‘ulot tarzida ham tashkil etish mumkin.

Bunday tajriba «Milliy istiqlol g‘oyasi va ma‘naviyat asoslari» fani oldiga qo‘ygan maqsad, vazifalarni izchil amalga oshirishda ijobiy samara beradi.

Dastur fan yuzasidan belgilangan ta'lim standartining loyiha variantiga moslab tuzildi. Ushbu fanning «Milliy istiqlol g'oyasi» bo'limi «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasi mazmunini yoritadi va «Ma'naviyat asoslari» bo'limi mavzulari mazmuniga ham milliy istiqlol g'oyasi tushuncha va tamoyillari mazmuni singdirildi.

7-sinf

(Haftasiga 1 soatdan, jami 34 soat)

Kirish. (1 soat)

«Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fani istiqlol yillarida shakllangan yangi fan ekanligi. Uning mavzu, mundarijasi, maqsad va vazifalari. Fanning asosiy maqsadi yoshlarda mustaqil dunyoqarash va erkin tafakkurni shakllantirishga qaratilganligi. «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fani asosiy manba sifatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga, I.Karimov asarlariga, «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» risolasiga, xalqimizning boy ma'naviy merosiga, milliy va umumbashariy qadriyatlarga tayanishi.

G'oya nima? (1 soat)

Fikr, fikrlar turi, fikrning g'oyaga aylanishi. Shaxsiy va ijtimoiy fikr. G'oya - inson tafakkuri mahsuli ekanligi va uning mohiyat-mazmuni, g'oyaning fikrdan farqi. G'oyaning ijtimoiy xarakteri.

G'oyaning asosiy xususiyatlari va turlari. (2 soat)

G'oyaning asosiy xususiyatlari va ma'lum maqsadga yo'naltirilishi, uyushtiruvchanligi, safarbarligi, tizim hosil qilishi. G'oyaning turlari – milliy, umumbashariy, diniy, ilmiy, dunyoviy, falsafiy. G'oyaning xususiyat jihatidan turlari – bunyodkor va vayronkor g'oyalar.

Jamiyat rivoji va bunyodkor g'oyalar. (2 soat)

Bunyodkor g'oyalar jamiyat rivojlanishining asosi ekanligi. Bunyodkor g'oyaga ta'rif. I.Karimovning «Odamning qalbida ikkita kuch – bunyodkorlik va vayronkorlik hamisha o'zaro kurashadi», - deb aytgan fikrlarining tahlili. Xalqimiz tarixida rivojlanishga asos bo'lgan g'oyalar. Zardushtiylikning «Ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal» haqidagi g'oyalari. A.Temurning bunyodkorlik g'oyalari.

Vayronkor g'oyalar va ularning zararli oqibatlari. (2 soat)

Vayronkor g'oyalarning asosiy belgilari, ularga ta'rif. Salb yurishlari, diniy fanatizm, fashizm, bolshevizmga asos bo'lgan g'ayriinsoniy g'oyalar va ularning zararli oqibatlari. Vayronkor g'oyalarga qarshi bunyodkor g'oyalarning rivojlantirilishi hayotiy zarurat ekanligi.

O'tilgan mavzularni mustahkamlash. (1 soat)

Mafkura nima? (2 soat)

«Mafkura» atamasining lugʻaviy maʼnosi va unga taʼrif. Mafkura muayyan bir ijtimoiy guruh, millat va xalqning maqsad-muddaolarini ifodalovchi, ularni maʼlum bir maqsad sari uyushtirib, safarbar etadigan, dunyoqarash va eʼtiqod asoslarini shakllantiradigan gʻoyalar tizimi ekanligi. Eʼtiqod – muayyan shakldagi ishonch, dunyoqarash, borliqqa maʼlum mezonlar asosida yondoshish imkonini beradigan, aniq bilim va tajribalarga tayanadigan tasavvurlar tizimidan iborat ekanligi.

Taraqqiyot va mafkura. (2 soat)

Jamiyat taraqqiyoti va mafkuraviy jarayonlar. Mafkuraning jamiyatni taraqqiyotga yoʻnaltiruvchi yoki halokatga olib keluvchi xususiyatlari. Taraqqiyot muttasil va samarali olgʻa intilish ekanligi va uning inson ongi va dunyoqarashini takomillashtirish mohiyati, zamonaviy taraqqiyot xususiyatlari.

Boʻlim yuzasidan takrorlash. (1 soat)

«Maʼnaviyat asoslari» boʻlimi

Mustaqillik mohiyati va maʼnaviy qadriyatlar. (1 soat)

Mustaqillik ajdodlarimizning muqaddas orzusi ekanligi. Ozodlik va mustaqillik yoʻlida kurashgan ajdodlarimiz Toʻmaris, Shiroq, Spitamen, Mahmud Torobiy, Jaloliddin Manguberdi, N.Kubro, A.Temurlarning jasoratlari. Mustaqillik tuygʻusi. Mustaqillik masʼuliyati. Mustaqillik ramzlari–mustaqillik qadriyatlar. Maʼnaviyat haqida tushuncha. Maʼnaviy qadriyatlar va ularning mustaqillikni mustahkamlashdagi oʻrni.

Millatim- faxrim mening. (1 soat)

Millat tushunchasi, millat belgisi. Millat xususiyatlari. Milliy oʻzlik. Milliy gʻurur tuygʻulari. Millat qadrini koʻtarayotgan insonlar haqida hikoyalar. Oʻzbek millatiga xos madaniy belgilar(doʻppi, chopon, belbogʻ, palak, zardoʻzi, atlas, kurash, dorboz va h.k.) Til -millat koʻzgusi. Oʻzbek tilim-oʻz tilim. E.Vohidovning «Oʻzbekim» va A.Oripovning «Oʻzbekiston» sheʼrlari tahlili misolida.

Oʻtilgan mavzularni mustahkamlash. (1 soat)

Vatanparvarlik va milliy iftixor tuygʻusi (2 soat)

Temur, A.Navoiy, Z.Boburlarning vatanparvarlik namunalari. Sportchilarimizning yutuqlari. Milliy iftixor tuygʻusi va vatanparvarlik. U.Nosirning «Vatan» sheʼri mazmuni tahlili.

Huquqiy madaniyat. (2 soat)

Huquqiy madaniyat tushunchasi, qonuniylik. Huquqiy savodxonlik. Fuqarolarning mavjud qonunlarni bilishi va unga rioya etishi ham bu

huquqiy demokratik davlatning asosi ekanligi. Huquqiy profilaktika yoshlarning jamiyat talablarini va Davlat qonunlarini bilishi hamda unga rioya etishi ya'ni o'z burch va mas'uliyatlarini qonun darajasida anglay bilishlari zarurligi. Qonunbuzarlik holatlari yuzaga kelishining oldini olishga qaratilgan qonuniy hujjatlar.

Inson va tabiat. (1 soat)

Ekologiya. Inson va jamiyat munosabatlari. Ekologik madaniyat-tabiatni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan omilkorlik bilan foydalanish, ekologik tizimni o'zgartirishga bo'lgan munosabatlardan iborat ekanligi, ekologik ta'lim-tarbiya inson ma'naviyati negizi sifatida. Hayvonot olamiga munosabat.

Mustaqillik yillarida ekologik vaziyatni yaxshilash borasidagi ishlar.

San'at - kundalik hayotimizda. San'atning mohiyati. (1 soat)

San'at tushunchasi va uning mohiyati. San'at turlari: xalq amaliy san'ati, badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, teatr, kino, televideniye haqida ma'lumot. San'at har bir xalq, millatning ma'naviy-ruhiy qiyofasi. San'at asarlari va ularning milliyligi hamda umumbashariy xususiyatlari. O'zbekistonda san'atning rivoji, tarixi va bugungi kuni.

Insoniy fazilatlar. Mehr-muruvvat va insonparvarlik tuyg'usi. (1 soat)

Insonlardagi mehr-oqibat tuyg'usi, ularning o'z tug'ishganlariga va o'zgalarga nisbatan samimiy muhabbati, shafqati va mehribonligida aks etishi. Muruvvat-odamgarchilik yuzasidan qilinadigan yaxshilik. Ma'naviy meros namunalari, ijodkorlarimiz asarlarida mehr-muruvvatning talqin etilishi. Inson tabiatidagi samimiylik, soddalik, his-tuyg'ularning tozaligi. Mehr-muruvvat ko'rsatish-milliy an'anaviylik ko'rinishining bir turi ekanligi.

Insonparvarlik tushunchasiga ta'rif. O'zbek xalqining bolajonligi, bag'rikengligi, rahmdilligi, mehmondo'stligi. «Hazrati inson» asarining tahlili. O'zbekiston xalqiga xos saxovatpeshalik. «O'ng qo'ling berganini, chap qo'ling bilmasin» maqolining sharhi. Insonlarga saxovat ko'rsatish. Yaxshilik qilishning foydasi (misollar orqali yoritish).

O'tilgan mavzularni mustahkamlash. (2 soat)

Xulq-odob - ma'naviyat negizi. (1 soat)

Odamlarning o'zaro munosabatisiz hayotni tasavvur qilib bo'lmasligi. Insonning xulq-odobi, uning ma'naviy qiyofasida belgilanishi. «Odobing-oftobing» iborasiga sharh. Transportda, jamoat joylarida o'zini tutish odobi. Ota-bobolarimizdan meros bo'lib qolgan sharqona odob-axloq. G'arb mamlakatlarida odob-axloqqa bo'lgan munosabat.

Hozirgi zamon yoshlariga xos fazilatlar. Hadislarda xulq-odob masalalari. Odob-axloqning milliy me'yorlari. A.Qodiriy, Fitrat va boshqa ijodkorlar asarlarida odob-axloq talqini va uning ulug'lanishi.

Do'stlik va o'rtoqlik. (1 soat)

Do'stlik qoidalari. Do'stlik tushunchasi. Do'stlik insonni ma'naviy qo'llab-quvvatlovchi, og'ir damlarda o'z yordamini ayamaydigan, inson qilib tarbiyalovchi kuchdir. Mustahkam do'stlik tuyg'usi. Do'stlik-o'rtoqlik munosabatlari. Haqiqiy va soxta do'stlar. Do'st tutish odobi. Do'stlik tushunchasining keng qamrovli ekanligi. Ajdodlarimiz ijodiy merosida do'stlikning ulug'lanishi.

Do'stga vafo- mardlik namunasi. (1 soat)

Do'stlikning eng muhim sharti. Haqiqiy do'st do'stining muvaffaqiyatidan quvonadi, kulfatidan kuyinadi. Dushman esa do'stining xatosini ko'rsa ham o'zini ko'rmaganga oladi. «Uzma do'stlik torini, bog'lash qiyin, ranjitsa do'st ko'nglini, chog'lash qiyin» iborasi mazmunini sharhlash. Kaykovusning «Qobusnoma» asarida va bolalar yozuvchilarining ijod namunalarida do'stlik munosabatlari. «Do'st boshga ish tushganda bilinadi». «Do'st achitib, dushman kuldirib gapiradi» maqollarining tahlili.

Kamtarlik. Kibru-havo va manmanlik. (1 soat)

Kamtarlik haqida tushuncha. Navoiy buyukligining siri uning kamtarligida ekanligi. A.Oripov va boshqa ijodkorlar asarlarida bir kishi ko'nglini shod aylash ka'bani obod aylash bilan barobar ekanligining madh etilishi. Kamtarlik insonni kamolotga, manmanlik esa zavolga olib borishi. «Kamtarga kamol, manmanga zavol» naqlining sharhi. Alisher Navoiy kamtarlik haqida.

Muloqot madaniyati. (1 soat)

Muloqot tushunchasining mazmuni. Muloqot kishining ichki va tashqi olamida namoyon bo'lishi. Hadislar kishilarning o'zaro muloqoti haqida. Samimiy muloqot madaniyat belgisi sifatida. O'g'il va qiz bolalarning muloqotlarida xulq-odob me'yorlari. So'z - insoniy muomala vositasi. O'zaro munosabatlarda xushmuomalalik va e'tiborlilik. O'zbekona samimiylik va ochiqko'ngillilik.

Oilada va jamoat joylarida muloqot madaniyati. (1 soat)

Muloqot-insonlarga xos hayotiy, ma'naviy ehtiyoj ekanligi. Oiladagi kundalik muloqot madaniyati. Insonlarni hayotga tayyorlashning asosi ekanligi. Ota-ona va farzand o'rtasidagi muloqot. Qarindosh-urug', qo'ni-qo'shni va do'stlar bilan muloqot madaniyati. Mehmon va mezb

muloqoti. Muloqotda sukut saqlash odobi. Hadislarda va «Qobusnoma»da muloqot odobi haqida.

Sir saqlash odobi? (1 soat)

Sir saqlash nima?. Oila siri, shaxsiy sir, do'st siri, davlat siri va ularni saqlash odobi. Sir saqlashning o'ziga xos xususiyatlari. Sir saqlashga o'rganishning talablari. Xorun Ar-Rashid haqidagi rivoyatlarda, al-Buxoriy va at-Termiziy ijodida va boshqa asarlarda sir saqlash odobining ifodalanishi..

O' tilgan mavzularni mustahkamlash. (1 soat)

«Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» fanidan dastur materiallarining mavzuiy rejasi

7-sinf

No	Mavzular	Soati
1.	I. Kirish. «Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari» ta'limining maqsad va vazifalari	1
2.	G'oya nima?	1
3.	G'oyaning asosiy xususiyatlari va turlari	2
4.	Jamiyat rivoji va bunyodkor g'oyalar	2
5.	Vayronkor g'oyalar va ularning zararli oqibatlari	2
6.	O' tilgan mavzularni mustahkamlash	1
7.	Mafkura nima?	2
8.	Taraqqiyot va mafkura	2
9.	Bo'lim yuzasidan takrorlash	1
II. Ma'naviyat asoslari		
10.	Mustaqillik mohiyati va ma'naviy qadriyatlar	1
11.	Millatim faxrim mening	1
12.	O' tilgan mavzularni mustahkamlash.	1
13.	Vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'usi	2
14.	Huquqiy madaniyat	2
15.	Inson va tabiat.	1
16.	San'at – kundalik hayotimizda. San'atning mohiyati.	1
17.	Insoniy fazilatlar: mehr-muruvvat va insonparvarlik tuyg'usi	1
19.	O' tilgan mavzularni mustahkamlash.	2
20.	Xulq-odob madaniyat negizi.	1
21.	Do'stlik va o'rtoqlik.	1
22.	Do'stga vafo – mardlik namunasi.	1
23.	Kamtarlik, kibru-havo va manmanlik.	1
24.	Muloqot madaniyati.	1
25.	Oilada va jamiyat joylarida muloqot madaniyati.	1

26.	Sir saqlash nima?	1
27.	O' tilgan mavzularni mustahkamlash.	1
	Jami:	34